



NAVOIY IJODIDA JAVOME' UL-KALIM USLUBI
(“Nazm ul-javohir” asari misolida)

Jalilov Sharofiddin,

Yangi asr universiteti tillar kafedrası o‘qituvchisi

Misirova Shohida,

Yangi asr universiteti 3-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207267>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda “javome’ ul-kalim” an’anasi hamda hazrat Alisher Navoiy ijodida “javome’ ul-kalim” uslubining qo‘llanishi (Nazm ul-javohir asari misolida) so‘z yuritilgan bo‘lib, “Nazm ul-javohir” asari tarkibida kelgan ruboiylarda Qur‘on va hadislardan kelgan iqtiboslar va ularni qo‘llashda “Javome’ ul-kalim”dan foydalanish uslubi tadqiq etilgan. Undan tashqari asarning mavzu ko‘lami, tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ham muhim ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Navoiy, “Nazm ul-javohir”, “Javome’ ul-kalim”, Qur‘oni Karim, hadis, iqtibos.

Ko‘p asrlik tarixga ega madaniy va adabiy merosimizga munosabat istiqloq tufayli tubdan o‘zgardi. Xalqimiz tarixi, dini va adabiyoti, ma‘naviy qadriyatlariga e‘tibor kuchayib, ularning mavqeini tiklash, xalqqa asl holda etkazish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa boshqa sohalar qatori adabiyotshunoslikda ham teran ilmiy izlanishlar olib borish, adabiy merosga yangicha yondashish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. O‘tmishda yashab ijod qilgan shoir va adiblar merosini xolisona o‘rganish va munosib baholash har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylandi.

Ajdodlarimizdan qolgan adabiy meros zamirida xalqimizning uzoq o‘tmishi, kurash tarixi va ertangi kunga bo‘lgan ishonchi yotadi. Bugungi kunda o‘tmishdagi ziyolilarimizning hayotini o‘rganib, ularni hayotimizga tadbiq qilib va shu bilan birga kelajak avlodlarimizga yetkazishimiz bizning yelkamizdagi eng zaruriy burchlarimizdan sanaladi.

Shu nuqtayi nazardan, Navoiy ijodi xalqimiz madaniy merosining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Bu adabiy asarlar turkiy tillar asosi sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib, turli mavzularda yozilgan. Sho‘ro zamonida ulardan ayrimlari o‘rganilib, nashr qilingan bo‘lsa, ba‘zi adabiy merosi umuman e‘tibordan chetda qolib keldi. Turli xil mafkuraviy ta‘qiblar bunga yo‘l qo‘ymadi.

Navoiy qalamiga mansub mana shunday asarlardan hisoblangan bu “Nazm ul-javohir” [Navoiy, Nazm ul-javohir, Toshkent-1991] asaridir. Negaki, “Nazm ul-

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



javohir”ni to‘la ma’noda anglash nafaqat arabiy, forsiy va qadim turkiy tildan xabardor bo‘lish, balki aqida, fiqh, tafsir, hadis, tarix, siyrat va adab ilmlari bo‘yicha ham muayyan tayyorgarlikka ega bo‘lishni taqozo etadi.

Nazm ul-javohir asari hazrat Alisher Navoiy tomonlaridan yozilgan bo‘lib, Qur'on oyatlari va hadislar mazmunini she'riy yo'sinda ifodalovchi axloqiy didaktik asar xisoblanadi, unda insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va diniy hikmatlar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan.

Asar Muqaddima, asosiy va yakuniy qism va **255 ta** ruboiydan tarkib topgan. Muqaddimada asosan Amir hazrat Ali tilga olingan. Asar Husayn Boyqaro risolatiga javoban **1485 yilda** yozilgan. Ushbu asar diniy va ma'naviy, hayotiy tajriba va donishmadlikni o'z ichiga oladi.

Asarda Hazrat Ali (r.a)ning hikmatlari asarda she'riy shaklda tarjima qilinib, tushintirilgan. Bu hikmatlarda insonning axloqiy barkamolligi, adolat, sabr-toqat kabi fazilarlar madh etilgan. Asardagi hikmatlarni Navoiy ruboiy tarzida ifodalab, asarni yanada ta'sirchan va o'qishga oson qilgan. Shu bilan birga hikmatlarni eslab qolishni osonlashtirgan. Asarda musulmonchilik va iymonning muhim jihatlari haqida ham fikr yuritilgan. Inson hayotida ilmu ma'rifatning o'rni nafs ustidan g'alaba qilish va iymonning mustahkamligi takidlangan. Asar yosh avlod uchun ibrat bo'ladigan pand nasixatlar bilan boyitilgan bo'lib, unda insonning o'z hayot yo'lini tanlashi, donolik va sabr bilan harakat qilishning ahamiyati tushintirilgan.

Nazm ul-javohir bu faqatgina badiiy asar emas, balki ma'naviy, ma'rifiy qo'llanma hamdir. U orqali hazrat Navoiy o'quvchilarni ezgulik bilim va donishmandlik sari yetaklaydi.

Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida “Javomi’ ul-kalim” uslubi Alisher Navoiy ijodida “Javomi’ ul-kalim” uslubi muhim o‘rin tutadi, ayniqsa uning diniy didaktik asarlarida, jumladan “Nazm ul-Javohir” asarida bu uslub keng qo‘llanilgan. Ushbu uslubni tushunish uchun, avvalo, uning mohiyatiga nazar tashlash muhimdir.

“Javomi’ ul-kalim” mohiyatan ma'nosi keng va chuqur, lekin qisqa va lo'nda iboralardir. Bu istiloh asosan Payg'ambar Muhammad (s.a.v) ning so'zlariga nisbatan ishlatiladi. U zotning hadislarida qisqa jumlar orqali chuqur hikmat va teran mazmun mujassam bo'lgan. Masalan, mashhur hadis: “Din — nasihatdir” [Imom Muslim, Sahih Muslim, Darul Ma'rifat nashriyoti, Bayrut, 2000-yil] bu lo'nda ibora keng mazmunga ega bo'lib, butun islom axloqining asosini ifodalaydi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Alisher Navoiy “Nazm ul-Javohir” asarida Qur’on oyatlari va hadislar mazmunini ifodalashda “Javomi’ ul-kalim” uslubiga keng murojaat qilgan. U o‘zining ixcham va mazmunli baytlari orqali katta hayotiy hikmatlarni ifoda etgan. Bu uslub orqali o‘z asarida quyidagi xususiyatlarni ochib beradi:

- Qisqalik — Fikr ixcham va lo‘nda bayon qilinadi.
- Chuqur ma‘no — Sodda ifodada ko‘p qirralik va hikmat mujassam bo‘ladi.
- Universallik — Mazmuni barcha davr va jamiyatlar uchun dolzarbligini saqlab qoladi.
- Didaktik yo‘nalish — Ushbu uslubda berilgan fikrlar odatda tarbiya, axloq va hayotiy qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Navoiy qisqa baytlar orqali chuqur hayotiy haqiqatlarni ifodalaydi:

So‘zla oz, ammo chuqur bo‘lsin, so‘zing,

Ko‘p so‘z emas, hikmat anga teng.

“So‘zla oz” – qisqalikka urg‘u berilgan. “Hikmat anga teng” — qisqa, ammo mazmunli so‘zning kuchi ta’kidlanadi. Ushbu fikr Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning: “Sukut qilgan najot topdi” hadisiga muvofiqdir. Navoiy bu fikrni o‘z she’rida “Javomi’ ul-kalim” uslubi orqali yetkazadi.

“Nazm ul-javohir” asarida Qur’on oyatlariga ham bir qancha ishora baytlar keladiki, buni ifodalashda Navoiy o‘zgacha uslubdan foydalanadi;

Insonning himmati uning qiymatidir. [Imom Ahmad, Musnad Darul Qutub al-Ilmiyya nashriyoti, Bayrut, 1995-yil]

Insonning qadri va qiymati uning orzu maqsadlari, intilishi va hayotdan ko‘zlagan ezgu niyatlariga bog‘liqligini anglatadi. Yuqori himmatli, oliy maqsadli insonlar doimo yuksak qadrlanadi;

Oyat: Har bir insonga o‘zi qilganidan boshqa narsa yo‘q. Va albatta, uning qilmishi tezda ko‘rinur [Qur’oni Karim, Tafsiri Hilol, Hilol nashr, 2017-yil, Najm surasi, 39-40-oyatlar] Najm surasi 39-40]

Ushbu oyatlar insonning hayotda intilishi va maqsadlariga qarab mukofot yoki jazo olishini bildiradi. Yuqoridagi himmat bilan ezgu maqsadlar sari intilgan kishilarning harakatlari Alloh huzurida qadrlanadi. Insonlar orasisagi himmati oliy kiahilar noyob tangaga qiyosdir.

Navoiy asar yakunida o‘quvchilarga xayrli tilaklar bildiradi. Ushbu qism asarning yakuniy ma’rifiy xulosasi hisoblanadi.

Bu so‘z bila tiladim men elga faloh,

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Kim bilur, mazmunidin anga bo‘lg‘ay najoh. [*Alisher Navoiy, Nazm ul-javohir, www.ziyouz.com saytidagi nashr, 2022-yil*]

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy qalamiga mansub “Nazm ul-javohir” asari “Javomi ul-kalim” an‘anasining go‘zal ko‘rinishidir, asar tarkibida kelgan muqaddas kitoblarimizdan olingan iqtiboslar hamda ko‘tarilgan mavzular har zamonda ham birdek o‘z mavqeini yo‘qotmaydi. Keyingi tadqiqot ishlariga dolzarb mavzuligicha qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. www.ziyouz.com saytidagi nashr, 2022.
2. Asadullo Xolmurodov. Himmat mu‘minning quvvati. Azon kitoblari 2022.
3. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Munir, 2022.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya. Hilol nashr, 2014.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. Hilol nashr 2017.